

1 – AMALIY ISHI



MAVZU: ZAMONAVIY O'QUV-TEXNIK VOSITALARI TASNIFI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH



**Ishning
maqsadi:**

Talabalarga sistema bloki va ona platalar komponentlarini, qurilmalarni sistema blokiga ulashni o'rgatish.

Qisqacha nazariy ma'lumotlar:

Nazariy ma'lumot.

Kompyuter qurilmalari va ular asosida shaxsiy kompyuterlarni yig'ish, kompyuterdan nima maqsadda foydalanishga bog'liqdir.


Masalan:

- **Odatiy** ishlar uchun
- **Offis** ishlari uchun
- **Buxgalteriya** ishlarini bajarish uchun va boshqalar.

Kompyuterlarni yig'ish uchun kerak bo'ladigan **komponentlar va qurilmalar:**



Tizimli blok



Video karta



Tizimli plata



SD_DVD – Rom



Protsessor



**Qattiq disk yoki
vinchester**



Kuler (Parrak)



Monitor



Operativ xotira



Klaviatura



Ovoz karta



Sichqoncha



Ichki yoki tashqi modem



Kolonkalar




Tarmoq kartasi



Va boshqalar

Foydalanadigan uskunalar:

- Otvertkalar to‘plami;
- Shurupovert;
- Pinset;
- Termopasta;
- Vintlar to‘plami;
- Shleyflar komplekti;
- Audiokabel va boshqalar.



Korpusni komponentlarni yig‘ishga tayyorlash.

Korpusning devor qismlarini yechish.

Buning uchun korpusning orqa qismini o‘zingizga qaratib buring va yon devorlarini ushlab turuvchi vintlarini ohista yeching.

Ona plata komponentlarini o‘rnatish.

1. Ona platani karton yoki paralon to‘shalgan stol ustiga qo‘ying. Karton yoki paralonni to‘shalishi stolni qirilishidan himoya qiladi.
2. Maxsus joy, ya‘ni razyemga protsessorni o‘rnatish. Buning uchun razyem yon tomonlarida joylashgan temir richaklarni vertikal holatgacha ko‘tarib qo‘ying.
3. Ortiqcha kuch ishlatmasdan protsessorni razyemga o‘rnating va temir richaklarni joyiga tushuring.
4. Protsessorga siliq holda termopasta surkang.
5. Kulerni protsessorga o‘rnating. Bunda protsessor va kulerning o‘yiq joylari bir biriga mos kelishiga e‘tibor bering.
6. Vintelyatorning elektr ta‘minlagichini ona plata razyomiga o‘rnating, razyom o‘zining kalitiga ega bo‘lib, uni noto‘g‘ri o‘rnatib bo‘lmaydi.

7. Xotira modullariga razyemlarni tanlash (**DDR1, DDR2, DDR3**) va o'rnatish.
8. Ona platani korpusga o'rnatish, bunda ona platani qotiruvchi vintlardan foydalaning.
9. **Adapterlarni o'rnatish.** Video kartani mos razyemga o'rnatish. Bu razyemning rangi boshqalaridan farqlanib u elektr ta'minlagich bloki (blok pitaniya) ga yaqinroq joylashgandir.
10. Boshqa adapterlarni, ya'ni **ovoz kartasi, tarmoq kartasi, ichki modem** razyemlarga mos ravishda o'rnatiladi. Agar iloji bo'lsa turli adapterlarni yonma yon o'rnatmagan ma'quldir, chunki bu holat ularni qizishni oldini oladi. Adapterlar o'rnatilgandan keyin ularni vintlar bilan qotirib chiqing.
11. Portlarni o'rnatish (o'yin, usb portlari, ma'lumotlar tez chiqaruvchi maxsus port,...).
12. Portlar razyemlarini ona plataga o'rnatish.
13. **Parraklar (Vintelyator)**-larni o'rnatish. Hozirgi zamon ona platalar havo temperaturasiga qarab parraklar harakatini boshqaradi. Parraklarning ichga havo tortuvchi va tashqariga issiq havoni chiqaruvchi ko'rinishlari mavjuddir.
14. Parraklar elektr ta'minlagichini ona plataga o'rnatish.
15. Qattiq disk (**vinchester**) va **CD – ROM**larni o'rnatish. Ular maxsus **karkas** deb ataluvchi qismlarga vintlar yordamida qotiriladi. **CD – ROM**ni o'rnatishda uning ustki va ostki qismlaridan ozgina tirqich qolishiga e'tibor bering, bu tirqich havo aylanishini ta'minlaydi.
16. Bu qurilmalar elektr ta'minlagichlarini ular uchun ajratilgan maxsus joylariga o'rnatish.
17. Korpusning yon devorlarini o'rninga qo'yish va apparat qismlarini (**monitor, sichqoncha, klaviatura, kolonkalar** va boshqa) larni o'rnatish.
18. Yig'ilgan kompyuter foydalanishga tayyor (albatta kompyuterning ikkinchi muhim qismi, ya'ni dasturiy ta'minoti o'rnatilgandan so'ng).

Yakuniy xulosa:

Kompyuter yig'ildi. Erishilgan natija so'ralgan talablarga javob beradi va kelgusida yana kompyuterni qo'shimcha jihozlantirish imkoniyatiga ega.

Birinchidan bu foydalanayotgan **RAM** hajmiga va yuqori chastotali protsessorning soniga tegishlidir.

Yana bir bor diqqat bilan barcha ulanishlarni ko'zdan kechiring, o'rnatilgan qurilmalarning to'g'riligiga ishonch hosil qiling.